

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

bilimlarni o'zlashtirish darajasi ortadi. Raqamli vositalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatilishiga xizmat qiladi. An'anaviy usullarga qaraganda raqamli texnologiyalar vaqtni tejaydi va natijalarni vizual tarzda tezroq baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ramsden P. Learning to Teach in Higher Education. Routledge, 2003.
2. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill, 2011.
3. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press, 2015.
4. To'laganov A. "Chizmachilik fanini o'qitishda axborot texnologiyalari". Toshkent, 2020.
5. Qodirov S. "Muhandislik grafikasi va zamonaviy ta'lim metodlari". Buxoro, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi. Toshkent, 2021.

BINOLAR FASADLARIDA MILLIY ARXITEKTURA ELEMENTLARINI QO'LLASH (Urganch shahri misolida)

*Rajabov Saidjon Shamuratovich Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
universiteti, "Arxitektura" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy arxitektura elementlarining nazariy asoslari, tarixiy obidalar misolida ko'rinishi, zamonaviy binolarda qo'llanishi va amaliy tajribalar keng yoritilgan. Xususan milliy arxitektura elementlarini binolar fasadlarida qo'llanish tajribalari taxlil qilingan va qo'llash uslublari haqida tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В этой статье подробно рассматриваются теоретические основы элементов национальной архитектуры, их появление на примере исторических памятников, применение в современных зданиях и практический опыт. В частности, был проанализирован опыт применения элементов национальной архитектуры на фасадах зданий и даны рекомендации по методам применения.

Annotation

This article examines in detail the theoretical foundations of the elements of national architecture, their appearance on the example of historical monuments, their application in modern buildings and practical experience. In particular, the experience of using elements of national architecture on building facades was analyzed and recommendations on application methods were given.

Kalit so'zlar

Milliy arxitektura elementlari, kompozitsiya, ravoq, gumbaz, ustunlar, bezak elementlari, naqsh elementlari.

Ключевые слова

элементы национальной архитектуры, композиция, арка, купол, колонны, декоративные элементы, элементы орнамента.

Keywords

elements of national architecture, composition, arch, dome, columns, decorative elements, ornament elements.

Kirish

Milliy arxitektura xalqning tarixiy merosi, madaniy qadriyatlari va turmush tarzining ifodasidir. Har bir davr me'morchiligi o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan dalolat beradi. O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan arxitektura maktablari Sharq me'morchilik madaniyatida muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashuv jarayonida milliy me'morchilik an'alarini asrab-avaylash va ularni zamonaviy qurilish tajribalari bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism

Milliy arxitektura elementlarining nazariy asoslari

Arxitektura elementlari binolarning tashqi va ichki tuzilishini belgilab beruvchi asosiy unsurlardir. Milliy arxitektura elementlari esa, ayni paytda, xalqning badiiy-estetik qarashlarini va dunyoqarashini ham aks ettiradi. O'zbek me'morchiligida quyidagi elementlar muhim o'rin tutadi:

- Hajmiy elementlar: gumbazlar, arklar, ayvonlar, ustunlar;
- Bezak elementlari: ganchkorlik, koshinkorlik, yog'och o'ymakorligi;
- Tashqi ko'rinish elementlari: fasad kompozitsiyasi, ornamentli deraza va eshiklar.

Bu elementlarning barchasi o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan mehnati, didi va estetik qarashlarini aks ettirib kelmoqda. Shu bois, ularni chuqur ilmiy o'rganish va amaliyotda qo'llash dolzarbdir [2].

Tarixiy yodgorliklar milliy arxitektura elementlarining amaliy ko'rinishidir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida bunyod etilgan madrasa, masjid, maqbara va saroylar milliy me'morchilikning eng go'zal namunalari. Masalan, Samarqanddagi Registon maydoni uch madrasa majmuasidan iborat bo'lib, undagi naqshlar, koshinlar va gumbazlar Sharq arxitektura maktabining yuksak namunasi sanaladi.

Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Po'i Kalon majmuasi, Xivadagi Ichan-Qal'a me'moriy yodgorliklari ham milliy arxitektura elementlari bilan boyitilgan. Bu inshootlarda nafaqat diniy va ilmiy faoliyat olib borilgan, balki ular xalqning madaniy-ma'naviy markazlari sifatida xizmat qilgan [3].

Zamonaviy binolarda milliy elementlardan foydalanish

Zamonaviy arxitektura texnologiyalarining rivojlanishi milliy me'morchilik elementlarini yangi shaklda namoyon qilish imkonini bermoqda. Binolarning fasad qismlarida shisha, metall va zamonaviy qurilish materiallari bilan uyg'unlashtirilgan milliy naqshlar keng qo'llanilmoqda.

Masalan:

- Toshkent shahrida barpo etilgan "Humo Arena" sport majmuasida milliy naqsh elementlari qo'llanilgan;
- Samarqanddagi "Silk Road Samarkand" turizm majmuasida mehmonxonalar va madaniy markazlar milliy me'moriy uslublar bilan uyg'unlashtirilgan;
- Urganch shahridagi Temir yo'l vokzali zamonaviy uslubda ta'mirlangan bo'lib, unda milliy mayolika va ark elementlari qo'llangan.

Bunday misollar milliy elementlarning nafaqat tarixiy binolarda, balki zamonaviy loyihalarda ham keng qo'llanishini tasdiqlaydi [5].



Urganch shahridagi Temir yo'l vokzali

O'zbekiston shaharlarida amalga oshirilayotgan qurilish va rekonstruksiya loyihalari milliy arxitektura elementlarini zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish jarayonining yorqin ifodasidir. Qadimiy obidalarni restavratsiya qilish jarayonida milliy naqshlar va ganchkorlik an'analari tiklanmoqda.

Bundan tashqari, yangi turar-joy majmualarida ham milliy elementlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab uy-joy majmualarining fasad qismida milliy naqshlardan foydalanilmoqda. Ichki interyerda ham ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi elementlari qayta tiklanmoqda. Bu esa aholining milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Turar joy binosida milliy arxitektura elementlarini qo'llash

Shuningdek, turizm sohasida bunyod etilayotgan mehmonxona va dam olish maskanlarida milliy elementlardan foydalanish xorijiy mehmonlar uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. Milliy arxitektura elementlari turistlarda o'ziga xoslik va tarixiy merosga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda.



Taxlil natijalariga tayanadigan bo'lsak, binolar fasadlarida milliy arxitektura elementlarini qo'llash:

- funktsional vazifasiga ko'ra;
- qo'llanish uslubiga ko'ra;
- kompozitsion tuzilishiga ko'ra farqlanadi.

Funktsional vazifasiga ko'ra milliy arxitektura elementi ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Konstruktiv element sifatida qo'llaniladi.
2. Bezak elementi sifatida qo'llaniladi.

Qo'llanilish uslubiga ko'ra:

1. Zamonaviy arxitektura elementlari bilan uyg'unlikda.
2. Milliy arxitektura inshooti ko'rinishida.
3. Klassik arxitektura elementlari bilan uyg'unlikda

Kompozitsion tuzilishiga ko'ra milliy arxitektura elementi quyidagicha bo'ladi:

1. Xajmiy element ko'rinishida.
2. Bo'rtma naqsh elementi ko'rinishida.
3. Yuza naqsh elementi ko'rinishida.

Xulosa

Milliy arxitektura elementlarini binolarda qo'llash nafaqat estetik jihatdan, balki madaniy-ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali xalqning tarixiy merosi asrab-avaylanadi, zamonaviy arxitektura milliy qiyofa kasb etadi,

turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Bugungi kunda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi arxitektura sohasining muhim strategik yo'nalishi bo'lib, kelajak avlod uchun milliy qadriyatlarning asrab qolinishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Ismatullaev A. O'zbek xalq me'morchiligi tarixidan. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Hamidov N. Me'morchilikda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Qodirov S. O'zbek arxitekturasi rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: O'zFA, 2015.
5. UNESCO. Architectural Heritage of Uzbekistan. – Paris, 2020.
6. www.unesco.org – O'zbekistonning madaniy merosi bo'yicha hisobotlar.
7. www.ziyouz.com – O'zbek arxitekturasi tarixiga oid maqolalar.
8. www.arxitektura.uz – Zamonaviy arxitektura loyihalari va milliylik haqida ma'lumotlar.

OLIY TA'LIMDA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Usmanov Valiaxmat Fayzillayevich, MChJ «SVP MASKAN»,

Ibragimov Xasan Murtazovich – muhandis,

Xaydarov Baxtiyor To'xtamurodovich-muhandis.

Zargarov Adilbek Kamilovich - Xorazm Ma'mun akademiyasi

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'limda islohotlar samaradorligini oshirish muammolari yoritilgan. Oliy o'quv yurtlariga abituriyentlarni qabul qilish bo'yicha taklif keltirilgan. Oliy ta'limda kredit - modul tizimda o'qitishning salbiy oqibatlari keltirilgan. Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti misolida xorijiy, yani Turkiya Yildiz universiteti dasturi bo'yicha o'qitishni salbiy oqibatlari yoritilgan.